

G'AFUR G'ULOM SHE'RLARIDA VATAN TALQINI

Xurshida Haydarova

TDYU Xususiy huquq fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Nodir Ramazonov

Jahonda zulmkashlik ovozlari o'qtin-o'qtin eshitilib turgan paytlarda davlatimiz mustaqilligini ko'z qorachig'idek, asrab- avaylash va bu yo'lida hamjihat bo'lish bizga suv bilan havodek zarur. Bu kabi muhim tushunchaalarni yoshlar ongiga yetkazishda eng qulay yo'llardan biri- adabiyot. Shunday mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan yozuvchi va shoirlar qatorida akademik shoir G'afur G'ulomning ham borligi hech kimga sir emas. Fikrimiz isboti sifatida birgina "Sharaf qo'lyozmasi" she'ridan bir parchani eslaylik:

Qadim o'zbek xalqisan,
Asl odam avlodni,
Misr ehromlaridan
Tarixing qariroqdir.
Xorazmnинг har g'ishtida
Bobolarning ijodi
Anglo-saksonlardan
Ancha yuqoriyoqdir.

Ushbu parcha orqali ham yozuvchining o'zbek xalqi ulkan tarixga ega ekanligi, buni birgina o'z davrining yetuk davlatlaridan bir bo'lgan Xorazmshohlar qurgan shaharlar-u, bizgacha yetib kelgan tarixiy obidalari bilan ham eslatmoqchi bo'ladi. Zero, ko'hna Xorazm o'zbek xalqiga tamal toshi qo'yilgan buyuk yurtdir. Barchamizga ma'lumki, o'rta asrlarda mustahkam davlat qura olgan anushteginiyilar sulolasining so'nggi vakili Jaloliddin Manguberdi Chingizxon bosqiniga qarshi yurt tinchligi yo'lida bor aql-zakovati va kuch qudratini ishga sola olgan sarkarda bo'lgan. Uning tariximizda qoldirgan ulkan izi ham aynan vatanparvarlik bilan bog'likdir. Zero, Jaloliddin Manguberdidek, yurt farzandlari vatanimiz uchun har doim kerak. Yozuvchi va shoir G'afur G'ulom ham yuqoridagi misralarda aynan ushbu jihatlarga ishora qiladi.

Shoirning urush yillarda ota-onasidan ayrılgan go'daklar uchun yaratgan "Sen yetim emassan" she'ridagi ushbu parcha orqali ham vatanni onaga, xalqni esa otaga qiyoslanishiga guvoh bo'lamiz:

Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim,
Quyoshday mehribon
Vataning –onang,
Zaminday vazminu
Mehnatkash, mushfiq,
Istagan narsangni tayyorlaguvchi

Xalq bor- otang bor,
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasan,
Bu yerda
na g'urbat ,
na ofat,
na g'am.
Bunda bor:
harorat,
muhabbat,
shavqat.
Va mehnat nonini ko'ramiz baham,
Sen yetim emassan,
Uxla jigarim.

Bir o'qishdayoq, munsik qalblarga malham bo'luvchi ushbu misralar urush davrida ota-onasidan mahrum bo'lgan bolalar uchun tirkak bo'lishga tayyor Vatani, ona yurti borligini eslatib turgan bo'lsa ajab emas. Negaki, Vatanni onadek aziz va mo'tabar bilish, uning har bir tuprog'ini yovlardan himoya qilish har qachon ham dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Keling, endi ushbu parchada qo'llanilgan xalq tushunchasiga to'xtalsak. Bir tomondan o'zbek xalqini naqadar mehnatkash, mehribon, bolajon va barcha qiyinchiliklarni sabr bilan yengib o'tishi haqida gapirilsa, ikkinchi tomondan xalqni otaga qiyoslab, farzandlar uchun boridan kechuvchi, barcha narsalarni imkon qadar muhayyo qiluvchi mushfiq otalarga ta'rif berib o'tadi. Ushbu misralardan kichik xulosa shuki, vatan – bu oila. Chunki, u ostonamizdan boshlanar ekan, yurishni o'rganayotgan go'dakning ham bir yonida otasi yana bir tarafida otasi turishini unutmasligimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, shoirni Vatan, tinchlikning otashin kuychisi deb atash ham mumkin. Nafaqat she'rlari , balki, nasriy asarlari bilan ham kitobxonga vatanparlik tuyg'usini singdirishga mohirona yozuvchi sifatida kirishganligini "Yodgor" qissasida ham ko'rishimiz mumkin. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misralarni keltirishni joiz deb bildik :

Hamma o'rganganimdan yaxlit xulosa:
O'z yurtim yerida ungan har maysa
Begona yurtlarning gulidan afzal.